

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abduraximova Dildora Muxtorovna
Andijon viloyati Paxtaobod tumani
43-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Kadr menejer**

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda motivatsiyaning ahamiyati, kichik maktab yoshi davrda bola maktab o‘quvchilariga qo‘yiladigan turli talablar bilan tanishish, shaxsiy tayyorgarlik, motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi borasida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yoshi, ta’lim, o‘quv faoliyati, motiv, motivatsiya, tasavvur, tafakkur, xotira, ijtimoiy omil, aqliy rivojlanish, senzitiv, davr.

Kichik maktab davri bu ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar davridir. Kichik maktab yoshi davrda bola maktab o‘quvchilariga qo‘yiladigan turli talablar bilan tanishadi, Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘zining maxsus o‘rni bo‘lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish — o‘quvchi bo‘lish fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirli, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolli bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. “Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi real tashqi olam, uning qanday bor bo‘lsa, shunday mavjud hususiyatlari doirasida idrok qilib, anglay boshlaydi.”

Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatdan va shartli barqaror bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o‘rni nihoyatda katta. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman? motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Ta’lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kamol toptirishning garovidir. O‘quv faoliyati psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o‘z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkabdir. Ta’lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mexnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo‘r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to‘plash, Tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o‘quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma’lum darajada o‘z faoliyatini o‘zi mustaqil rivojlantira oladi. U o‘z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so‘z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so‘zsiz bolaning diqqatini Tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so‘zsiz o‘z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san’at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o‘quvchilarda xayol paydo bo‘ladi. O‘quv faoliyati boladan berilgan o‘quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. o‘qituvchi o‘quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko‘rsatmalar

beradi. O’quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolanning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo’lgan qiziqishi belgilab beradi. O’quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Dars jarayonida o’qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so’raydi. Bu holat. albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo’lgan taqdirdagina o’quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlar qilishga qiynaladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarga axborot bosimining psixologik xususiyatlariga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi bola o’qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo’ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o’zlashtirib kelgan bo’lsa, endi o’z xohish irodasi bilan zarur ma’lumotlar to’plashga, o’z oldiga aniq maqsad va vazifa qo’yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkuri jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko’proq narsani o’zlashtiradi. Maktab ta’limi o’quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeyini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o’rmini o’zgartiradi. Uning vazifasi o’qishdan, bilim olish, ko’nikma va malakalarni egallash, o’zlashtirishdan iborat bo’lib qoladi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o’ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o’z mohiyatiga ko’ra muayyan bilim, ko’nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o’quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratir. Shu ehtiyojlar asosida o’z portfeliga, shaxsiy o’quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo’yish javoniga ega bo’lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Kichik maktab yoshidagi bola o’zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi, Kattalarning ko’rsatishlariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg’ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma’lum vaqt o’tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o’z ahamiyatini yo’qota boradi va bola o’qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko’nikmasiga ega bo’lmasa uning o’qishdan ko’ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O’qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta’limning o’yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma’lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak.

Ta’limning mazmuni o’quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o’z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog’liqdir. Bu his o’qituvchining rag’batlantirishi bilan amalga oshiriladi va o’quvchida samaraliroq ishlash moyili, istak va ishtiyoqini shakllantiradiyu. bolada paydo bo’lgan faxrlanish, o’z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o’zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o’qitish jarayoni, o’quv faoliyatining asosiy komponentlari: o’quv vaziyatlari, o’quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (V.V.Davidov bo’yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishda qulay bo’lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o’quv harakatlarini noto’g’ri bajarsa, bu uning o’quv harakatlarini nazorat va baholash bilan bog’lik harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidai bo’lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o’z xatti-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o’z-o’zini nazorat etish xususiyatlarini ma’lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O’quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo’llari bilan tanishadilar va ularni-egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. O’quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o’qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan

ko‘proq ravishda normativ talablar qo‘yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o‘zini to‘liq anglashi va o‘zi xatti harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o‘qituvchigina bolaga me‘yorlar quyishi, ularning xatti-xarakterlarini baholashi mumkin. O‘z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to‘la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o‘qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o‘z-o‘zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Muxtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevoori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq” deb aytib o‘tgan.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, xuquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagog kadrlar shug‘ullanadilar. Kichik maktab yoshida o‘qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy o‘qituvchi tomonidan past bahoning ko‘p qo‘yilishi, bu esa bolada o‘qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o‘z imkoniyatlariga nisbatan bo‘lgan ishonchning pasayishida deb biladi. Vaholanki, o‘qituvchi ustozlar kichik maktab yoshidagi bolalarni maktabga bo‘lgan qiziqishlari, ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun ularni rag‘batlantirish, ruhlantirish, baholarini past qo‘ymaslik lozim. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining hamjamjixatlik bilan olib boradigan ishlarigina o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish vazifalari hozirgi yangi O‘zbekistonda yaratilgan barcha shart- sharoitlardan foydalanib, kelajagimiz poydevori bo‘lmish yosh avlodga hozirdanoq mustahkam bilim berish, jamiyatdagi o‘rni va mavqeni ko‘tarish vazifalarini hozirdanoq bajarish ana shuni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 yil. 38-bet
2. M.Voxidov. Bolalar psixologiyasi. Toshkent.1974 y.
3. V. Karimova. «Psixologiya» T.Sharq 2002 y. 144-bet
4. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Psychological factors in the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 122-125.
5. Tolibdjanovna, A. Z. (2023). Psychological Factors of Manifestation of Aggressive Behavior in Teenagers during Globalization.
5. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Social and psychological factors in the formation of psychological culture of students. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 428-431.
6. Xosilbekovna, S. F. (2024). Psixologik holatlarga tushishni oldingi olish. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 39(4), 56-58.